

# 9-sinf O'zbekiston tarixi

## 11-dars: Xiva xonligi ustidan Rossiya imperiyasi protektoratining o'rnatilishi.

### Darsning maqsadlari:

#### 1. Ta'limiy maqsad:

O'quvchilarga Xiva xonligiga qarshi Kaufman boshchiligida harbiy yurishlarning boshlanishi, Mang'ishloq, Orenburg, Turkiston va Krasnovodsk okruglarining yurishda ishtirok etishi, 1873 yil 12 avgustda imzolashgan Gandimiyon shartnomasi. Xiva xonligi 2 million 200 ming rubl miqdorida tovon to'lanishi haqida tushunchalar berish.

Tarixiy davrlar va yillarni ajrata oladi, tarixiy hisobini tushuntira oladi;

Mazkur davrni o'rganish orqali o'quvchilar tarix fanining o'rganilayotgan davriga oid tarixiy atamalar mazmunini, tarixiy shaxslar haqida, tarixiy sanalarda ro'y bergan voqealar haqida ma'lumot bera oladi hamda mazkur davrga oid tarixiy joylarni tarixiy xaritadan ko'rsata oladi, ma'lumot bera oladi.

#### 2. Tarbiyaviy maqsad:

O'quvchilarni yangi bilimlar egallashga va tartib-intizomga doimo rioya etishga yo'naltirish hamda ularda ona Vatanga nisbatan muhabbat tuyg'ularini shakllantirish;

O'quvchilarning ozod va hur yashashga bo'lgan munosabatlarini rivojlantirish;

Jamiyatda bo'layotgan voqea, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish va faol ishtirok etish;

O'zining fuqarolik burch va huquqlarini bilishi, unga rioya qilish;

#### 3. Rivojlantiruvchi maqsad:

Mavjud tarix faniga oida axborot manbalaridan (internet, televizor, radio (audiovideo yozuv), telefon, kompyuter, elektron pochta va boshq.) foydalana olish;

O'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish;

O'quvchilarda umumlashma xulosalar chiqarish ko'nikmasini shakllantirish.

### O'QUV JARAYONINI AMALGA OSHIRISH TEXNOLOGIYASI

Dars turi:	Yangi bilim beruvchi, bilimlarni shakllantiruvchi
Dars metodi:	"Interfaol metodlar", "Guruhlarda ishlash", "Klaster"
Dars jihozi:	darslik, xarita, ko'rgazmali va didaktik materiallar, proyektor, AKT

### DARSNING BLOK CHIZMASI:

No	DARS BOSQICHLARI:	Bajariladigan ish mazmuni	Ajratilgan vaqt
1	Tashkiliy qism	Salomlashish, davomatni aniqlash, sinfni darsga tayyorlash, kun tarixi aytiladi	3 daqiqa
2	O'tilgan mavzuni takrorlash	Takrorlash, mustahkamlash, yangi mavzu bilan bog'lash	8 daqiqa
3	Yangi dars mavzusi mazmunini tushuntirish	Yangi mavzuni tushuntirish	14 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	Yangi mavzuni mustahkamlash	15 daqiqa
5	Dars yakuni va baholash	G'olib guruhni aniqlash, rag'batlantirish. Darsning so'ngi xulosasini chiqarish	3 daqiqa
6	Uyga vazifa	O'qituvchi tomonidan uyga vazifa e'lon qilinadi va keyingi mavzuga tayyorlanib kelish yo'nalishini aytib o'tadi	2 daqiqa



## Yangi dars mazmunining tayanch tushunchalari, atamalari, tarixiy sana va nomlar:

Xiva xonligi, Xonqa va Hazorasp, O'rta Osiyoning Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishining uchinchi bosqichi, Muhammad Rahimxon II, Gandimiyon shartnomasi, 1873-yil, general Vervovkin, Amudaryo bo'limi.

# DARSNING BO'RISHI

## I. Tashkiliy qism:

O'quvchilar davomati aniqlanadi. Sinfning darsga tayyorgarligi tekshiriladi. Darsda psixologik iqlim yaratish, dars shiori va maqsadini e'lon qilish.

O'qituvchi tomonidan bugungi kunda tavallud topgan mashhur shaxslar, yurtimiz va jahon maydonida sodir bo'lgan muhim ijtimoiy-siyosiy ma'lumotlar, bayramlar haqida **qisqacha** ma'lumot berib o'tiladi.

## II. O'tilgan mavzuni takrorlash:

### “Guruhlarda ishlash”



O'quvchilar 4 guruhga bo'linadi. Har bir guruh uyga berilgan mavzuga oid atamalardan o'z guruhlariga nom qo'yib olishadi hamda guruhga qo'yilgan nomga qisqacha ta'rif berishadi.

**1-topshiriq:** Darsning bu qismi quyidagi savollar yozilgan kartochkalar yordamida amalga oshiriladi.

**1-kartochka:** K. P. Kaufman nima uchun Samarqandga yurish qildi?

**2-kartochka:** Zirabuloq jangida amir qo'shinlari nima uchun mag'lubiyatga uchradi?

**3-kartochka:** Samarqandda xalq harakatlariga kimlar boshchilik qildi?

**4-kartochka:** 1873-yildagi shartnomaning mohiyatini aytib bering.

O'quvchilar tomonidan yo'l qo'yilgan xatolar birgalikda tuzatiladi. Fikrlar to'planib tahlil va qisqacha xulosa qilinadi.

## III. Yangi dars mavzusi mazmunini tushuntirish:

Bu vazifa quyidagi reja asosida amalga oshiriladi:

- **Xiva xonligiga qarshi harbiy yurishlarning boshlanishi;**
- **Gandimiyon shartnomasi**

### Xiva xonligiga qarshi harbiy yurishlarning boshlanishi



Podsho qo'shinlari Xiva ostonasida

ega bo'lish hisoblangan.

Rossiya imperiyasi tomonidan O'rta Osiyo istilo qilinishining uchinchi bosqichi (1873-1879-yillar) davomida Xiva xonligining istilo etilishi ham amalga oshirildi. Hujum g'arbda Mang'ishloq, shimolda Orenburg, sharqda Turkiston va janubda Krasnovodsk kabi to'rt harbiy okrugdan olib borildi. Bunda 12 mingdan ortiq askar, 4600 ot va 20 ming tuyadan iborat harbiy qo'shin ishtirok etgan. Bu qo'shinga K. P. Kaufman boshchilik qildi. Mazkur ko'p sonli harbiy qo'shin 1873-yil fevralda o'zlari o'rnatilgan joylari -Toshkent, Orenburg, Mang'ishloq va Krasnovodskdan deyarli bir vaqtda yo'lga chiqdi. Xiva xonligiga olib boruvchi yo'llarning yomonligi, dastlab 25 daraja sovuqda, keyin 40 darajadan yuqori haroratda yo'l yurish juda qiyin kechdi. Bundan tashqari cho'mlarda 60 darajagacha jazirama bo'lishi, suvsiz dastlardagi yo'llar tufayli harbiy qo'shin manzilga yetmasdanoq saflari siyraklashib bordi. Uning katta qismi yo'lga kasalga chalindi, bir qismi halok bo'ldi va bir qismi orqaga qaytib ketdi. Xivaga 7,5 ming kishigina yetib bordi. Krasnovodsk va Mang'ishloqdan Xiva tomon yurgan qo'shinlar jazirama issiq va suv yetishmasligidan aziyat chekkanligi, holdan toyganligi sababli yo'lning yarmidan ortga qaytishga majbur bo'ldi. Faqatgina Toshkent, Orenburg yo'nalishidan yo'lga chiqqan qo'shinlar 1873-yil may oyida Xiva xonligi chegaralariga yetib keldi. Yo'l qiyinchiliklaridan tashqari ularga



yo'lda kichik guruhlar hujum qilib, tinkasini quritgan. Rossiya imperiyasi qo'shinlari bilan Xiva xonligi qo'shinlari o'rtasida may oyida Hazorasp qal'asi, Qo'ng'iro't, Xo'jayli, Mang'it shaharlari va Xiva shahri yaqinida janglar bo'lib o'tdi. Tomonlarning kuchlari teng emasligi, katta talafotlarga qaramasdan, xivaliklarga nisbatan podsho hukumati qo'shinlari yaxshi qurollangani bois xonlik himoyachilari mag'lubiyatga uchradi.

1873-yil may oyining o'rtalariga kelib mustamlakachi hukumatning asosiy qo'shinlari Xivaga yetib keldi. Ularning Xivaga qilingan birinchi hujumi himoyachilar tomonidan qaytarildi. Bu jangda ikki tomon ham katta talafotlar ko'rdi. Hujumga boshchilik qilgan general Vervovkin yarador bo'ldi. Podsho hukumati qo'shinlari katta talafot ko'rgani bois chekinib, fon Kaufman boshchiligidagi kuchlarni kutishga majbur bo'ldi.

Xivaga yetib kelgan K. P. Kaufman boshchiligidagi qo'shin yana shaharga hujum qildi. Ammo bu safar ham podsho hukumati qo'shinlari shaharni egallay olmadi. 29-may kuni shaharning Hazorasp darvozasining dushmanlarga ochib berilishi xonlik poytaxtining egallanishiga olib keldi. Shundan so'ng K. P. Kaufman muzokara olib borish yo'lini tanladi.

### Gandimiyon shartnomasi



Xiva xonligidagi bozor

K. P. Kaufman Xivani bosib olgandan so'ng xon xazi-nasini *kontributsiya* (tovon) evaziga musodara qilib, xazina bilan birga qadimiy qo'lyozmalar, xonning taxti va toji, tanga zarb qiladigan tamg'a va zarb tasviri, qo'ng'iro't sulolasi xonlarining hokimiyati ramzlari va boshqa qo'lga kiritilgan moddiy boyliklarni Sankt-Peterburgga jo'natdi. K. P. Kaufman Xivani egallagandan so'ng Xiva xonligi bilan muzokaralar o'tkazish uchun Gandimiyon qishlog'idagi qarorgohiga bordi. U taklif etgan sulh shartnomasini Xiva xoni Muhammad Rahimxon II 1873-yil 12-avgustda imzolashga majbur bo'ldi. Ushbu shartnoma Xiva xoni Rossiya imperiyasi tobeligiga o'tganligini ko'rsatardi. Shartnomaning birinchi muddasida: «Sayid Rahim Bahodirxon o'zini Butun Rossiya imperatorining sodiq xodimi deb tan oladi. U qo'shni hukmdorlar va xonlar bilan har qanaqa bevosita do'stona munosabatlardan va ular bilan biron-bir

savdo yoki boshqa shartnomalar tuzishdan voz kechadi hamda Rossiyaning O'rta Osiyodagi oliy hokimiyati ruxsatisiz ularga qarshi hech qanday jangovar harakatlarni amalga oshirmaydi», — deb yozib qo'yilgan edi. Bu bilan Xiva xoni mustaqil ravishda tashqi dunyo, hatto yaqin qo'shnilari bilan ham aloqa o'rnatish imkonidan mahrum etildi. Faqat ular bilan Rossiya imperiyasi roziligi bilangina aloqa qila oladigan bo'ldi.

Xiva xonligiga qarashli Amudaryoning o'ng sohili, unga qo'shni yerlarning barchasi, bu joylarda yashaydigan o'troq va chorvador aholisi bilan xon tasarrufidan chiqdi. Amudaryo bo'ylab erkin harakatlanishi uchun Rossiya kemalariga keng huquq berildi. Rossiyalik savdogarlar hamda ularning mollari uchun xon va mahalliy hokimlar javobgar bo'ladigan bo'ldi. Ular xonlikda erkin yurish, boj to'lovlarisiz savdo qilish huquqini qo'lga kiritdilar.

Gandimiyon shartnomasida: «Amudaryoning chap qirg'og'idagi ruslar uchun zarur va qulay bo'lgan yerga ular o'zlarining *pristanlarini* qurish hnuqigiga ega. Xonlik ushbu pristanlarning saqlanishi va xavfsizligi uchun javobgar. Ular uchun joyning tanlanishi, O'rta Osiyodagi rus oliy hokimiyatining tasdiqlashiga bog'liq», - deb ko'rsatib qo'yildi.

Shartnomaga binoan Xiva xonligi 2 million 200 ming rubl miqdoridagi tovonni 20 yil davomida to'lashi belgilandi. Xonlik xazinasida yetarli darajada pul bo'lmaganligi uchun bu tovon aholidan yig'ib olinadigan bo'ldi.


Gandimiyon shartnomasi Xiva xonligining Rossiya imperiyasiga tobeligini, xonning davlat boshlig'i darajasida boshqa davlatga bo'ysunganligini ko'rsatuvchi hujjat bo'ldi. Shartnoma shu bilan birga xonlik aholisini juda og'ir ahvolga solib qo'ydi. Tovon bilan birga yangi soliq va majburiyatlarni to'lash xalqning zimmasiga tushdi. Qolaversa, xonlik hududining uch baravar qisqarishi xonlikning davlat sifatida nomigagina mavjudligini, aslida mustaqilligini yo'qotgan protektoratga aylanganligini ko'rsatardi.

### IV. Yangi mavzuni mustahkamlash:

#### Yangi mavzuni mustahkamlash quyidagi topshiriqlar asosida olib boriladi:

**1-topshiriq:** «Klaster» usuli asosida.

O'qituvchi vatman qog'ozining markazida doira chizadi va uning ichiga «Gandimiyon shartnomasi» deb yozadi. O'quvchilar Gandimiyon shartnomasiga oid sana, tarixiy shaxslar ismi va shartnoma shartlarini yozib chiqishlari kerak.



O'quvchilar tomonidan yo'l qo'yilgan xatolar birgalikda tuzatiladi. Fikrlar to'planib tahlil va qisqacha xulosa qilinadi.



### V. Dars yakunlarini chiqarish:



O'quvchilarda paydo bo'lgan savollarga javob berish;

Baholarni e'lon qilish.

O'quvchilar aytib o'tgan fikrlari to'planib tahlil va xulosa qilinadi va darsning eng so'nggi xulosasi chiqariladi

### VI. Uyga vazifa:



Mavzu yuzasidan darslikda berilgan savollarga javob topish.

Anagramma tuzib kelish

Kelgusi darsda o'tiladigan mavzu bilan tanishib kelish, asosiy tushunchalarni eslab qolish, qo'shimcha manbalarni izlab topish.



**Kelgusi yilda o'zgartirish kiritilsa yoki internetdan olingan yangiliklar bo'lsa yoziladi:**

---

---

---

---

---

---

---

---

**K.Q. №\_\_\_\_\_**



**Xiva xoni Muhammad Rahimxon II**

